

“Davlat belgisi” davlat unitar korxonasi 2023 yil uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida

UMUMIY HISOBOT

I. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid chora-tadbirlar dasturlari ijrosi to‘g‘risida umumiy ma‘lumot.

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 27 noyabrdagi PF 200-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2023-2024 yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha choralar belgilab olindi.

Dasturning 25-bandi: “Davlat belgisi” davlat unitar korxonasi xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha nazariy bilim va ko‘nikmalarini oshirish maqsadida o‘tkaziladigan o‘quv-seminar mashg‘ulotlari yillik rejasi asosida barcha xodimlar uchun muntazam o‘quv-seminar mashg‘ulotlari o‘tkazilib kelinmoqda.

Xususan, 17 marotaba o‘tkazilgan o‘quv seminar mashg‘ulotlarida korxonaning jami 760 nafar xodimlari ishtirok etgan va o‘tkazilgan o‘quv-seminar mashg‘uloti yuzasidan bayonnomalar rasmiylashtirilgan.

Bundan tashqari, 2023 yilning 17 fevral va 7 iyulda tasdiqlangan “Korxonada boshqaruv xodimlarini malakasini oshirish yuzasidan mashg‘ulot o‘tkazilish Dasturi”ga asosan fevral-mart oylarida 45 nafar tarkibiy bo‘lim rahbarlari va mutaxassislar maxsus o‘qishdan o‘tkazilgan.

Adliya vazirligi tomonidan tashkil etilgan “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonun talablari” mavzusida 17-18 aprel kunlari o‘tkazilgan o‘quv mashg‘ulotlarida 2 nafar xodim ishtirok etib, sertifikatga ega bo‘ldi.

Markaziy bank tomonidan 11-13 aprel kunlari tashkillashtirilgan “Rossiya bankida zamonaviy ichki audit” mavzusida o‘quv dasturiga asosan o‘quv-amaliy seminarida 4 nafar xodim ishtirok etdi.

Korxonada bosh direktori tomonidan «Davlat belgisi» DUKning rasmiy veb-saytiga «Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz» mavzusida hamda “Davlat

belgisi” DUKda ISO 37001:2016 xalqaro standarti joriy etildi” nomli maqolalari joylashtirilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni va “Davlat belgisi” davlat unitar korxonasi korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki normativ-huquqiy hujjatlari” mavzusida 2023 yil 22 iyun kuni seminar trening o‘tkazilib, tayyorlangan slayd materiallari korxonasi rasmiy veb-saytidagi alohida sahifaga hamda korxonaning elektron kutubxonasiga joylashtirildi.

Bundan tashqari, korxonasi rasmiy veb-saytida korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bog‘liq ichki normativ-huquqiy hujjatlar va maqolalar berib borilmoqda.

Dastur 38-bandi: Markaziy bank Boshqaruvining 2020 yil 26 noyabrda 26/8-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Markaziy bank tizimida xaridlarni amalga oshirish Tartibi” hamda korxonasi bosh direktorining 2022 yil 11 yanvardagi “Davlat belgisi” davlat unitar korxonasi davlat xaridlarini amalga oshirish to‘g‘risida”gi Nizom, 2023 yil 22 noyabrda tasdiqlangan “Davlat belgisi” davlat unitar korxonasi xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash” to‘g‘risida ma’lumotlar korxonaning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan.

Dastur 39-bandi: korxonaning rasmiy veb-saytida bo‘sh ish o‘rinlari hamda nomzodlarga qo‘yilgan talablar to‘g‘risida ma’lumotlar joylashtirilib borilmoqda, shuningdek Mehnat vazirligining “ish.mehnat.uz” saytiga ham fuqarolar bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risida ma’lumot olishlari va hujjat topshirishlari imkoniyati yaratilgan.

1.2. Korxonada Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi va korxonasi bosh direktori tomonidan tasdiqlandi hamda ijrosi to‘liq ta’minlanib, tegishli har oylik hisobotlar har oy yakuni bo‘yicha muassisga taqdim etib borilmoqda.

II. Siyosat va tartib taomillar.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tavsiyalariga asosan hamda ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro standarti talablaridan kelib chiqib, korxonada korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlarni tartibga soluvchi ichki normativ-huquqiy hujjatlar tasdiqlangan.

- korxonaning Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati;
- Markaziy bank tizimida manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va boshqarish to‘g‘risidagi Nizom;

- Markaziy bank tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish to'g'risidagi Nizom;

- Markaziy bank tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti;

- Markaziy bank tizimida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha Reglamenti;

- Markaziy bank tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish hamda ularning ta'qib qilinmasligi kafolatlari to'g'risidagi Tartib;

- ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni va yuqori lavozimga tayinlanayotgan hamda korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimga doimiy ishga o'tkazilayotgan xodimlarni o'rganish to'g'risidagi Yo'riqnoma;

- xodimlarni etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil etish bo'yicha Yo'riqnoma;

- kontragentlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma;

- korrupsiyaviy xabarlarni aloqa kanallari orqali qabul qilish va qayta ishlash Tartibi;

- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti;

- korxonada ishchi-xodimlari odob-axloqining qoidalari hamda odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi Nizom;

- "Sovg'alar va vakillik xarajatlari to'g'risida"gi Nizom tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni talablaridan kelib chiqib, korxonada davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi takomillashtirildi.

III. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-240-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Markaziy bankda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyotiga muvofiq korxonaga yuklangan barcha funksiyalar bo'yicha korrupsiyaviy xavf-xatarlar tahlil qilindi.

Tahlil natijasiga ko'ra, korxonada faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni umuman olganda "past" darajada baholanishi korxonada tomonidan aholiga bevosita xizmatlari ko'rsatilmashligi, korxonada binolari alohida toifalangan obyekt hisoblanishi va binolar Mudofaa Vazirligi harbiy xizmatchilari tomonidan qo'riqlanishi hamda xaridlarni amalga oshirish, ishga qabul qilish va korxonaning nazoratga doir funksiyalarini amalga oshirish bo'yicha qarorlarning kollegial tartibda qabul qilinishi, faoliyatning to'liq normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinganligi, ish jarayonlarini avtomatlashtirish choralari ko'rilganligi, korxonaga ISO 37001:2016 xalqaro standarti- korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi talablari hamda matbaa jarayonida xavfsizlik tizimi boshqaruvi bo'yicha ISO 14298:2021 xalqaro standarti (Intergraf) joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Baholash natijalari asosida shakllantirilgan korxonaning Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda tegishli ma'lumotlar "E-Anticor.uz" elektron platformasiga joylashtirish masalasini ko'rib chiqish uchun muassisga taqdim etildi.

IV. Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshiriladigan tartib-taomillar.

4.1. Manfaatlarni to'qnashuvini tartibga solish.

Markaziy bank tizimida manfaatlarni to'qnashuvini aniqlash va boshqarish to'g'risida Nizom talablariga asosan korxonada mehnat qilayotgan barcha xodimlarning manfaatlarni to'qnashuvi bo'yicha yillik deklaratsiyalari taqdim qilindi.

Korxonada "Manfaatlarni to'qnashuvi reyestri" shakllantirildi hamda tegishli ma'lumotlar "E-Anticor.uz" elektron platformasiga joylashtirish masalasini ko'rib chiqish uchun muassisga taqdim etildi.

Shuningdek, korxonada bo'sh ish o'rinlarga nomzodlarni lavozimga tayinlash hamda lavozimini o'zgartirish (rotatsiya) jarayonida nomzodlarning manfaatlarni to'qnashuvi mavjud/mavjud emasligi to'g'risidagi deklaratsiyalari tahlil qilinib, tegishli xulosalar berildi.

Potensial yoki real manfaatlarni to'qnashuvi yuzaga kelganligi yuzasidan tarkibiy tarmoq rahbarlari yoki xodimlari tomonidan Ichki audit xizmatiga "Manfaatlarni to'qnashuvining kelib chiqishi ehtimoli haqida" Xabarnomalar kelib tushmagan.

“Davlat belgisi” davlat unitar korxonasida manfaatlar to‘qnashuvi holatlarining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash va manfaatlar to‘qnashuvi reyestriga kiritilgan xodimlarning kelgusida manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishning oldini olish choralari ko‘rib borilmoqda.

4.2. Korrupsiyaga qarshi qoidalarni korxonada shartnomalariga kiritish.

Korxonada xaridlarni amalga oshirishda tuziladigan xo‘jalik shartnomalariga O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunining 46-moddasiga asosan xaridlarni amalga oshirishda korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik prinsiplaridan kelib chiqib, korrupsiyaga va qonunchilikning boshqacha tarzda buzilishlariga yo‘l qo‘ymaslik hamda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha shartlar kiritildi.

Korxonaga ishga qabul qilinadigan xodimlar bilan tuziladigan mehnat shartnomalarida lavozim majburiyatlarini suiiste‘mol qilmaslik, korxonaning ichki meyoriy hujjatlari, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalariga rioya qilish hamda biror bir shaxslar yoki xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning o‘zlariga ma‘lum bo‘lgan holatlari haqida o‘z rahbarini va korxonaning korrupsiyaga qarshi kurashishga mas‘ul bo‘lgan tarkibiy bo‘linmasini zudlik bilan xabardor qilishga oid majburiyatlar belgilandi.

4.3. Kontragentlarni tekshirish.

Korxonada kontragentlarni o‘rganishga oid Yo‘riqnomada talablari asosida xaridlarni tender, tanlov va to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshirishda ishtirokchilarda affillanganlik, manfaatlar to‘qnashuvi va boshqa korrupsiyaviy xatarlarni oldini olishga qaratilgan 82 ta kontragentlar bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazilib tegishli xulosalar berildi.

O‘rganish natijalari bo‘yicha shakllantirilgan kontragentlarni o‘rganish reyestri “E-Anticor.uz” elektron platformasiga joylashtirish masalasini ko‘rib chiqish uchun muassisga taqdim etildi.

4.4. Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni o‘rganish.

Korxonaga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni o‘rganish to‘g‘risida Yo‘riqnomada talablariga asosan 38 nafar nomzodlar o‘rganildi.

Mazkur o'rganishlar jarayonida nomzodlar hamda yuqori lavozimga tayinlanayotgan xodimlarning manfaatlar to'qnashuvi holatlari, avvalgi ish joyidagi xulq-atvori hamda korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish bilan bog'liq ma'lumotlarga e'tibor qaratildi.

O'rganish natijalari bo'yicha shakllantirilgan nomzodlarni o'rganish reyestri "E-Anticor.uz" elektron platformasiga joylashtirish masalasini ko'rib chiqish uchun muassisga taqdim etildi.

V. Xodimlarni o'qitish va kommunikatsiya tadbirlari.

5.1. Xodimlarning huquqiy ongini oshirish yuzasidan o'qitish tadbirlar.

Korxonada xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil etish bo'yicha 2023 yilga mo'ljallangan o'quv-seminar rejasi tasdiqlangan.

Mazkur reja doirasida korxonada barcha xodimlari uchun 17 marotaba davra suhbatlari, ma'ruza va seminarlar tashkil etildi.

Bundan tashqari, "Korxonada boshqaruv xodimlarini malakasini oshirish yuzasidan mashg'ulot o'tkazilish Dasturi"ga asosan 45 nafar tarkibiy bo'lim rahbarlari va mutaxassislar maxsus o'qishdan o'tkazilgan.

Korxonaning rasmiy veb-saytida "Korrupsiyaga qarshi kurashish" sahifasi yaratilib, korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bog'liq meyoriy-huquqiy hujjatlar va ma'lumotlar kiritilib borilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni va "Davlat belgisi" davlat unitar korxonasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki normativ-huquqiy hujjatlari" mavzusida seminar trening o'tkazilib, tayyorlangan slayd materiallari korxonada rasmiy veb-saytidagi alohida sahifaga hamda korxonada elektron kutubxonaga joylashtirildi.

5.2. Korxonada rahbariyatining korrupsiyaga qarshi muvofiqlik munosabati.

Korxonada bosh direktorining xodimlar va keng jamoatchilik uchun korrupsiyaga qarshi kurashishga oid «Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz» mavzusidagi murojaati sohasida korxonaning rasmiy veb-saytiga joylashtirildi.

Shuningdek, "Korxonada ISO 37001:2016 xalqaro standarti joriy etildi" nomli maqolasi joylashtirilgan.

5.3. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xorijiy tajribani o'rganish.

Korxonada "CERT International" MCHJ menejment tizimini sertifikatlash bo'yicha organi tomonidan sertifikatlash auditori muvaffaqiyatli o'tkazildi hamda audit natijasiga ko'ra, korxonada ISO 37001:2016 xalqaro standart talablarini qo'llashga muvofiqligi tasdiqlandi.

ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro standarti talablari bo'yicha 12 nafar mas'ul xodimlar maxsus kursda o'qitildi.

VI. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risida xabar berish tizimi.

Markaziy bank boshqaruvining 2022 yil 24 sentabrdagi 21/8-sonli qarori bilan "Markaziy bank tizimida aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar hamda manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti tasdiqlangan.

Shuningdek, korxonada xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari ishga tushirilgan:

Elektron pochta ijtimoiy tarmog'idagi aloqa kanali: komplayens@davlatbelgisi.uz.

Ishonch telefoni: (+99888) 148-14-22; ichki raqam: 1111;

Rasmiy veb-saytidagi aloqa kanali: davlatbelgisi.uz;

Telegramm bot aloqa kanali: [@davlat_belgisi](https://t.me/davlat_belgisi).

Korxonada xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari haqida kelib tushgan murojaatlar "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonun va hamda korxonaning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki idoraviy hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

Shu bilan birga, Markaziy bank boshqaruvining 2023 yil 25 martdagi 8/13-sonli qarori bilan "Markaziy bank tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish hamda ularning ta'qib qilinmasligi kafolatlari to'g'risida"gi Tartib tasdiqlangan.

Hisobot davrida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog'liq masalalar to'g'risida mavjud aloqa kanallari orqali xabarlar kelib tushmagan.

VII. Monitoring, nazorat va profilaktik tadbirlar.

Korxonada bosh direktorining 2023 yil 13 noyabrdagi 02DV-sonli farmoyishiga asosan joriy yilning 14-20 noyabr kunlari tasdiqlangan auditorlar guruhi tomonidan ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi” xalqaro standartining 9.2 bandi talabiga ko‘ra, korxonaning barcha tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi talablariga muvofiqligini baholash maqsadida ichki auditdan o‘tkazildi.

Ichki audit natijalari bo‘yicha 2023 yilning 28 noyabr kuni hisobot tuzildi va tegishli tavsiyalar berildi hamda ijro uchun tegishli tarkibiy tarmoqlarga yuborildi.

Korxonada bosh direktorining 31.07.2023 yildagi 123DB-sonli buyrug‘iga asosan korrupsiyaviy xavf-xatari ehtimoli past darajadan yuqori bo‘lgan lavozimlarda 2023 yilning 1 avgustidan 4 avgustiga qadar majmuaviy tekshiruv o‘tkazish orqali monitoring qilindi.

Korxonada xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik hamda Markaziy bankning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki meyoriy hujjatlari talablari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini baholash maqsadida joriy yilning 1-3 avgust hamda 23-27 noyabr kunlari onlayn test sinovlari o‘tkazildi.

Korxonada korrupsiyaga qarshi kurashish borasida hamda korxonada faoliyatini sohalari bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligi bo‘yicha xodimlar fikrini o‘rganish yuzasidan joriy yilning 12-20 sentabr kunlari anonim so‘rovnoma o‘tkazildi.

Anonim so‘rovnoma natijalari umumlashtirilib, korxonada rahbariyatiga xizmat xati kiritildi.

Bundan tashqari, Korxonada bosh direktorining 20.10.2022 yildagi 245DB-sonli buyrug‘i asosida har chorakda korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimi jarayonlari va ularning natijadorlik mezonlarini o‘rganilib buyruqda belgilangan natijalariga erishib borilishini ta‘minlash nazorat qilib borilmoqda.

Bundan tashqari, ishonch telyefonlari orqali xabar berish mumkinligi aks etgan tarqatmalar hamda “Korrupsiyaga yo‘l yo‘q” nomli devoriy plakatlar yangidan tayyorlanib tarqatildi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta‘sir choralari.

Korxonada xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik hujjatlari hamda korxonaning ichki meyoriy hujjatlarini buzish holatlari qayd etilmagan.

IX. Xulosalar.

- korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tavsiyalariga asosan hamda ISO 37001:2016 xalqaro standart talablaridan kelib chiqib, sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar tasdiqlandi va amaliyotga tadbiq etish borasida ishlar amalga oshirildi;

- korxonaning barcha funksiyalari korrupsiyaviy xavf-xatarlari tahlil qilinib, korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi bo'yicha toifalarga ajratildi. Baholash natijalari yuzasidan shakllantirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ishlab chiqildi;

- Markaziy bank tizimida manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va boshqarish to'g'risidagi Nizom talablari asosida korxonada bo'yicha Manfaatlar to'qnashuvi reyestri shakllantirildi hamda barcha "potensial" holatlarning "real" manfaatlar to'qnashuviga aylanishini oldini olish bo'yicha choralar belgilandi va nazoratga olindi;

- xo'jalik shartnomalari hamda mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi shartnomalarda korrupsiyaga qarshi qoidalarni nazarda tutuvchi shartlar kiritildi;

- korxonada xaridlarni amalga oshirishda hamda tizimga ishga qabul qilinayotgan va yuqori lavozimga tayinlanayotgan nomzodlarni ichki normativ hujjatlarda belgilangan tartibda o'rganish amaliyoti joriy etildi;

- korxonada xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid bilim va ko'nikmalarini oshirish, korrupsiyaning mohiyati, sabablari, ijtimoiy jihatdan xavfli va zararli oqibatlarini to'g'risida umumiy tasavvurni shakllantirish maqsadida muntazam ravishda o'quv seminarlari va profilaktik tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda;

- korxonada xodimlarining korrupsiya bilan bog'liq xatti-harakatlari haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari (*rasmiy veb-sayt, elektron pochta, telegramm bot, ishonch telefoni*) ishga tushirildi;

- korxonada "CERT International" mas'uliyati cheklangan jamiyati menejment tizimini sertifikatlash bo'yicha organi tomonidan sertifikatlash auditori muvaffaqiyatli o'tkazildi hamda audit natijasiga ko'ra, korxonada ISO 37001:2016 xalqaro standart talablarini qo'llashga muvofiqligi tasdiqlandi;

- korxonaning 12 nafar xodimlari "Smart Management international training company" tomonidan ISO 37001:2016 xalqaro standart talablari bo'yicha treninglarda qatnashdi va sertifikatga ega bo'ldi;

- korrupsiyaviy xavf-xatari ehtimoli past darajadan yuqori bo'lgan lavozimlar ISO 37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi" xalqaro standartining 8.2-bandi talablariga ko'ra majmuaviy tekshiruvdan o'tkazildi va aniqlangan holatlar yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi;

ISO 37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi" xalqaro standartining 9.2 bandi talabiga ko'ra, korxonaning barcha tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi talablariga muvofiqligini baholash maqsadida ichki auditdan o'tkazildi

Olib borilgan ishlar natijasida, korxonada 2023 yil davomida korrupsiya bilan bog'liq holatlar qayd etilmadi.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi.

1. Korxonada xodimlarini korrupsiyaga oid qonunchilik va shu sohaga tegishli ichki normativ-hujjatlar haqida xabardorligini oshirish bo'yicha muntazam o'quv mashg'ulotlari o'tkazib borish.

2. Korxonada xodimlarini korrupsiyaga oid qonunchilik va shu sohaga tegishli ichki normativ-hujjatlar bo'yicha olgan bilimlarini sinovdan o'tkazib borish.

3. Korxonada korrupsiyani oldini olish va shu soha bo'yicha xodimlar xabardorligini yanada oshirish maqsadida 2024 yilga mo'ljallangan ish rejasi ishlab chiqish va tadbirlarni ijrosini belgilangan muddatlarda ta'minlash.

4. "Davlat belgisi" davlat unitar korxonasida korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish bo'yicha 2024 yilga mo'ljallangan maqsadlar va ularni amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar Dasturi ishlab chiqish hamda sifatli ijro etilishini ta'minlash.

**Ichki audit xizmati
komplyens-nazorat
bosh mutaxassisi**



T.X.Botirov